

**EKSPORTBOP ERTAPISHAR DAKARO F1 QOVUNINI EKISH, YETISHTIRISH VA
AGROTEXNOLOGIYASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11660312>

FarDU o'qituvchisi

Zohidov G'iyosiddin

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda respublikamizda yetishtiriladigan poliz mahsulotlaridan eksportbop ertapishar qovun navi bo'yicha umumiy sifat ko'rsatkichlari, agrotexnikasi va daromadi haqida gap boradi. Boshqa qovun navlari bilan ekish va yetishtirish usullari solishtirilgan.*

KIRISH

Jahondagi eng yaxshi va shirin qovunlar O'zbekistonda yetishtiriladi. Xalq seleksiyasida uning 150 dan ortiq navlari mavjud. Mamlakatimizda eng ko'p ekiladigan qovun navlari: "Oqurug'", "Asate 3806", "Bo'rikalla", "Ko'ktinna", "Ko'kcha", "Qizilurug'", "Mahalliy sariq handalak", "Obi Novvot", "Shakarpalak", "Gurlan" kabilardir. Lekin hozir gap ertapishar dakaro f1 navi haqida gap boradi.

Qovunning biologik va morfologik xususiyatlari - Qovun sucumis melo L turkumiga mansub o'simlik qovoqdoshlar oilasi bodring turkumiga mansub bo'lib bir yillik o't o'simliklar turiga kiradigan poliz ekinidir. Urug'i tuproq harorati 14-150 ga yetganda una boshlaydi. Qovun urug'i ekilgandan keyin 5-7 kunda unib chiqadi. Agar harorat 130 dan pastga tushib ketsa urug'lar chirydi. Qovunning palagi baquvvat bo'lib, yer bag'irlab yoki chirmashib o'sadi, undan 3-4 ta tartib shoxlar o'sib chiqadi va uzunligi 3-4 m ga, palagidagi hamma shoxlarning o'rtacha uzunligi 20-25 m ga yetadi [4].

Qovun mevasining kimyoviy tarkibi. Meva tarkibida 8-20% quruq modda, 18% qand (saxaroza), 0,1-0,7% kletchatka, 0,2-35,2 mg% C, PP vitaminlari, folat kislotasi, kaliy, natriy, kalsiy, magniy, temir, fosfor, oltingugurt va mikroelementlar bor. Qovun tibbiyotda bod, sil, kamqonlik, ziqnafas, jigar va buyrak kasalliklarini davolashda tavsiya etiladi. Xalq tabobatida podagra (niqriz)ga davo, peshob haydovchi, qabziyatdan xoli qiluvchi, asabni tinchlantiruvchi omil sifatida qo'llaniladi.

Qovun ekish sxemasi: qovun 3 muddatda ekiladi. O'zbekistonning markaziy viloyatlarida qovunning ertachi navlari 15 aprelgacha, o'rtagisi 20 apreldan 10 maygacha, kechkisi 15 maydan 10 iyungacha; janubiy viloyatlarda ertagi navlar 10 aprelgacha, o'rtagisi 10-20 aprelda, kechkilari esa 10-20 iyunda ekiladi. Shimoliy viloyatlarda ertachi qovunni 20 aprelgacha, o'rtagisini 25 apreldan 10 maygacha, kechkisini 20-30 mayda ekish lozim. Ekish sxemasi qovun navi va sharoitga qarab (210+70):2x70sm. Urug'lar ekishdan oldin dorilab 2-3 kun ivitiladi urug'lar 3-6 sm chuqurlikka ekiladi, 1 ga yerga qo'lda ekilganda urug' hajmiga qarab 2,5- 3,0 kg, qatorlarga ekadigan seyalka bilan ekishda 5-6 kg urug' sarflanadi. Ildizi

o'qildiz uzunligi 1 m gacha boradi. Chopiq paytida yagana qilib bittadan o'simlik qoldiriladi. O'suv davrida qator oralari 2-3 marta yumshatiladi. Tuproq sharoitiga qarab 5-6 marta sug'oriladi. Hosildorligi 250-300 s/ga.

Yuqoridagi ananaviy usulda yetishtirilgan qovun haqida gap bormoqda. Dakaro f1 qovun navini intensiv usulda maxsus parniklarda plyonkalar ostida yetishtirish mumkin. Bu usuldan Farg'ona viloyatining ayrim tumanlarida ko'rishimiz mumkin. Dakaro f1 qovun navi Niderlandiya maxsuloti bo'lib, urug' maxsus paketlarda jo'natiladi. Paket ichida esa 1000 dona urug' mavjud bo'ladi. Bu urug'lar fevral oyining 10-20 kunlari oraligida dastlab 2-3 kun maxsus dorili suvda undiriladi so'ngra maxsus o'g'itli tuproq solingan yashiklarga unib chiqqan urug'lar ekiladi. Oradan 5-7 kun o'tgan so'ng ya'ni qovun ko'charlari 2 ta asosiy barglarini chiqarib olgandan keying chirindili voronkalarga ekib chiqiladi va ko'chatlar kattalashib kunlar isiguncha kichik issiqxonalarda saqlanadi, shundan so'ng bir oydan keyin ya'ni 10-20 mart oralig'ida qovun ko'chatlari yerga ekiladi. Erta bahorda havo harorati past bo'lganligi uchun ko'chatni dastlab ildiz qismini himoya qilish uchun plyonka bilan yopiladi undan so'ng yer ustki qismini himoyalash uchun parnikchalar yasaladi. Shu zaylda qovunlar 15-20 mayda hosil pishib bozor rastalariga kiradi.

Qovunlar asosan egatlarga ekiladi pushta qismining oralig'i 1,5-2 m bo'lishi va ko'chat oralig'lari 40-50 sm bo'lishi kerak. Shunda 10 sotix maydonga 1500-1600 ta ko'chat sig'ishi mumkin. Mevasi oval, sariq tillarang ko'rinishda 4 tagacha meva ushlashi mumkin lekin asosan 2 ta mevasi yaxshi va sifatli pishadi. Mevasi o'rtacha 2-3 kg ba'zan 4-5 kg gacha yetishi mumkin. Kechpishar qovun navlari bir marta uzib yig'ib olinadi, ertapishar qovun esa 10-15 martagacha har kuni uzish mumkin va hosil 10 sotix maydon uchun 1,5-2,5 tonnagacha borishi mumkin.

O'g'itlash. Qovun uchun 1 sotixga tuk holda 0,750 g azotli, 0,750 g fosforli va 0,500 g kaliyli, organik o'g'itlardan 300 - 400 kg solinadi. Bo'z tuproqli yerlarda o'suv davrida ekinni har gal 1 sotixga 4 - 5 m³ hisobidan 8-9 marta sug'orish kifoya. Sizot suvi yuza joylashgan dalalarda esa bo'z tuproqli yerlarga qaraganda kamroq (4- 5 marta) sug'oriladi. O'suv davrida poliz ekinlarini suv bilan bir tekis ta'minlash hosildorlikni oshirish garovidir.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Urug'larni ekishdan oldin Fundazol preparati (1 kg uruqqa 4-8 g) bilan yoki Ponaktin (1 kg uruqqa 4 g) bilan namlab ekish tavsiya etiladi. Kasalliklardan zararsizlantirish maqsadida urug'lar ekishdan oldin birorta mikroelementlarga solib bo'ktirib qo'yiladi. Ular: mis, rux va marganes (0,05% yoki 0,5 g/kg), temir va bor (0,025% yoki 2,5 g/kg). Ivitish suyuqlik harorati 20-22oS bo'lganda 12 soat davom etadi.

Zararkunandalari - poliz biti (shirasi), o'rgimchakkana, oqqanot, kuzgi tunlam, poliz qo'ng'izi, qovun pashshasi va boshqalar.

Kurash usullari: agrotexnik usulda ekinlarni almashlab ekishga rioya qilish, yerlarni chuqur haydash, yaxob suvi berish.

Biologik usulda poliz bitiga va o'rgimchakkanaga qarshi oltinko'z kushandasini, oqqanotga qarshi enkarziya parazitini qo'llash tavsiya etiladi.

Kimyoviy usulda 10 sotixga oqqanot, shiralarga qarshi Mospilan 20% (25–30 ml), Sipermetrin 25% (30 ml) va boshqa preparatlar qo'llaniladi. Qovun maysa pashshasi va qovun pashshasiga qarshi Atilla 5% em.k. (200 ml),

Sumi-Alfa 5% em.k. (300 g) preparatlari qo'llaniladi.

Kasalliklari. Ildiz chirish, fuzarioz so'lish, unshudring, oddiy bodring mozaikasiga qarshi ekinlarni almashlab ekishga rioya qilish, o'simlik qoldiqlarini yo'qotish, fungitsidlardan Topaz 10% (200–250 ml), Kurzat R n. kuk. (200–250 g), Foliar BT 22,5% (50 ml) preparatlarini 60-70 litr suvga aralashtirib purkash tavsiya etiladi.

XULOSA

Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida etishtirilayotgan eksportbop qovun navlarini etishtirish bo'yicha eng maqbul navlar, nav xususiyatlari, ekish sxemalari agrotexnik tadbirlar, kasallik va hashoratlarga qarshi kurash choralari to'g'risida qisqacha ma'lumot keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 12 apreldagi "Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy esport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3377-son qarori.

2. Qovun va tarvuz yetishtirishi. 100 kitob to'plami. Qo'llanma "Tasvir nashriyoti" uyi Toshkent - 2021 y. "AGROBANK" ATB.

3. Qovun va tarvuz ekini zararli organizimlariga qarshi kurash. Qo'llanma "Tasvir nashriyoti" uyi. Toshkent - 2022 y. "AGROBANK" ATB.